



NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

"PEDAGOGIK TA'LIM VA TARBIYA
TRANSFORMATSIYASIDA FUNDAMENTAL,
AMALIY VA INNOVATSION TADQIQOTLARNING
KONSEPTUAL ASOSLARI"

Respublika ilmiy-amaliy
anjumani dasturi

«Pedagogik ta'lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Namangan 2025-yil.

To'plamga 2025-yil 29-may kuni institutda o'tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etgan Oliy o'quv yurtlar professor-o'qituvchilari, doktorantlari, magistratura mutaxassisligi va bakalavriat yo'nalishi talabalari hamda ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlarining ma'ruza materiallari kiritilgan. Chop etilgan materiallarining mazmuni va haqqoniyligiga mualliflar mas'ul hisoblanadilar.

Anjuman tashkiliy qo'mitasi

Husanov B.E	- NamDPI rektori, rais
Qodirxonov M.R	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Yuldashev J.A	- Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash sektori
Abdullayev T.U	- Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani
Matkarimov A	- Aniq fanlar kafedrası mudiri
Abdullayev S.X	- Aniq fanlar kafedrası professori
Najmiddinova X.Y	- Aniq fanlar kafedrası professori
Uluxanov I.T	- Aniq fanlar kafedrası professori
Xudayqulov Sh.S	- Aniq fanlar kafedrası dotsenti
Eshnazarova M.Y	- Aniq fanlar kafedrası dotsenti
Tursunova Sh.B	- Aniq fanlar kafedrası dotsenti
Mirzayev T.S	- Aniq fanlar kafedrası katta o'qituvchisi
Yusupov D. A	- Aniq fanlar kafedrası katta o'qituvchisi
Alijanov D.A	- Aniq fanlar kafedrası katta o'qituvchisi
Muxitdinova M.J	- Aniq fanlar kafedrası katta o'qituvchisi
Mo'minova M.U	- Aniq fanlar kafedrası katta o'qituvchisi
Ibroximov M.A	- Aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi
Ziyamova G.T	- Aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi
Xusayinova G	- Aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi
Maxsudova Sh.M	- Aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi
Turdaliyeva N.A	- Aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi
O'ktamaliyev I	- Aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi
G'ayniddinov Sh.T	- Aniq fanlar kafedrası stajyor-o'qituvchisi
Samatov A	- Aniq fanlar kafedrası stajyor-o'qituvchisi
Qurbonov M	- Aniq fanlar kafedrası stajyor-o'qituvchisi

NamDPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti kengashining 2025-yil 30-maydagi 9-sonli qaroriga asosan anjuman materiallari chop etishga tavsiya qilingan.

INGLIZ TILIDA NUTQINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Kabulova Zulfiya Xojabayevna
ChDPU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni o'rganadi. Unda o'ziga ishonch va xorijiy til tashvishi kabi psixologik jihatlarning, shuningdek, shaxsiy qiziqish, motivatsiya va qo'llab-quvvatlovchi auditoriya muhitining talabalarning faol ishtirokini kuchaytirishdagi ahamiyati yoritib beriladi. Bundan tashqari, tahlilda kommunikativ va formatif baholash kabi metodik yondashuvlarning o'quvchilarni haqiqiy muloqotga jalb etishi hamda o'z zaif tomonlarini aniqlab, ularni bartaraf etish imkonini berishi alohida ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari ingliz tilida og'zaki nutqni rivojlantirish jarayoni psixologik, motivatsion, metodik va tashkiliy omillar ta'sirida shakllanadigan murakkab va ko'p qirrali hodisa ekanligini ko'rsatadi. Ushbu omillarni ta'lim jarayoniga kompleks anglash va ongli ravishda integratsiya qilish talabalarning ingliz tilida erkin va ishonch bilan muloqot qilish qobiliyatini samarali rivojlantirishi mumkin.

Kalit so'zlar: *fiziologik mexanizm, xorijiy til tashvishi, sanoatlashtirish, konstruktiv*

Kirish

Hozirgi sanoatlashtirish va modernizatsiya davrida ingliz tilidan muloqot vositasi sifatida foydalanish katta ahamiyat kasb etib, u ta'lim va iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ingliz tilini puxta bilish va uni erkin qo'llay olish nafaqat biznes taraqqiyotiga, balki turli sohalarda samarali hamkorlik va konstruktiv munosabatlarni yo'lga qo'yishga ham hissa qo'shadi. Tilni o'zlashtirish oddiy jarayon emas; u muntazam sa'y-harakat hamda vaqtning katta miqdorda sarf etilishini talab etadigan uzoq muddatli jarayondir.

Shu bois, tilni o'rganish yoki o'qitish jarayoni talabalar hamda o'qituvchilardan katta sadoqat, matonat va energiyani talab etadi. Bugungi globallashtirish sharoitida ingliz tili xalqaro muloqot tili sifatida e'tirof etilgan bo'lib, uni chet tili yoki ikkinchi til sifatida o'qitish va o'rganish masalalari jahon miqyosida keng muhokama qilinmoqda.

Asosiy qism

Tilni o'qitish va o'rganish jarayonida o'qituvchi ham, o'quvchi ham maqsadlarni aniq tushunishi va ularga erishish yo'llarini belgilab olishi muhimdir. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, til o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iboratdir. Shunga muvofiq, til ta'limining yakuniy maqsadi o'quvchilarga tilda samarali va ravon muloqot qilish qobiliyatini berishdir[1].

Tadqiqotchi M.X. G'ulomova o'z ilmiy ishlarida nutq faoliyati tinglash, gapirish, o'qish va yozishdan iborat ekanligini qayd etadi. Tilshunoslikda nutq tilning mahsuli sifatida qaraladi, psixologiyada esa u nutq jarayonining fiziologik mexanizmlari sifatida o'rganiladi. Til o'qitish jarayonida tinglab tushunish gapirishning ajralmas qismi hisoblanadi, chunki ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq va o'zaro mustahkamlovchi parallel jarayonlardir. Tinglab tushunishdagi asosiy muammolardan biri lingvistik qiyinchilik bo'lib, uni o'qish va yozish faoliyatini integratsiyalash orqali samarali bartaraf etish mumkin. Tinglash va tushunish bir vaqtda sodir bo'ladi va muvaffaqiyatli idrok uchun tinglovchidan leksik va grammatik bilimlarga ega bo'lish talab etiladi. Bu bilimlar asosan o'qish va yozish orqali rivojlanadi. O'qish faoliyati axborot olish va lug'at boyligini kengaytirishda muhim o'rin tutadi, o'qish va yozish orqali egallangan bilim esa tinglash va gapirish jarayonida tilni samaraliroq qo'llash imkonini beradi[2].

Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar, shuningdek, bu omillar haqidagi olimlarning qarashlari muhokama qilinadi:

- Agar talabaning o'ziga bo'lgan ishonchi past bo'lsa, u dars jarayonidagi muloqotda kamroq ishtirok etadi va xato qilishdan qo'rqadi, bu esa o'z navbatida uning nutqiy faoliyatini kamaytiradi. Shu nuqtai nazardan, til o'rganish jarayonida "xorijiy til tashvishi" tushunchasi kiritiladi[3];

- Og'zaki nutqni rivojlantirishda shaxsiy qiziqish va mavzuga bo'lgan ishtiyoq muhim o'rin tutadi[4];

- Talabalarni muloqotga jalb etishda qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, erkinlik hissini ta'minlash hamda faol ishtirokni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi[5];

- Guruh ichida sog'lom psixologik muhit, o'zaro hurmat va erkinlik mavjud bo'lganda, talabalar faolligi ortadi[6].

Xulosa

Baholash tizimi talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. An'anaviy testlardan farqli o'laroq, kommunikativ baholash yondashuvi talabalarni real muloqotga faol jalb etishga undaydi. Formativ baholash, ya'ni ta'lim

jarayonida amalga oshiriladigan baholash, talabaga o'z faoliyatini tahlil qilish va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinadiki, ingliz tilida og'zaki nutqni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar murakkab va ko'p qirrali bo'lib, unda psixologik, motivatsion, metodik hamda tashkiliy jihatlar muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillarni chuqur o'rganish va ta'lim jarayoniga ongli ravishda integratsiya qilish orqali talabalarning ingliz tilida erkin va samarali muloqot qila olish qobiliyatini rivojlantirish mumkin bo'ladi.

References:

1. Graham, D. (2005) *Cooperative learning methods and middle school students*, Unpublished PhD thesis, Capella University.
2. Alwasilah, A. C. (2004). *The tapestry of English language teaching and learning in Indonesia*. Malang: State University of Malang Press.
3. Hill, S. & Hill, T. (1990) *The collaborative classroom: a guide to cooperative learning*, South Yarra, Eleanor Curtin.
4. Gunderson, B & Johnson, D (1980) Building positive attitudes by using cooperative learning groups, *Foreign Language Annals*, 13 (1), 39-46. Harmer, J. (2004) *How to teach writing*, Harlow, UK.
5. Rice, R. P. & Huguley, J. T., Jr. (1994) Describing collaborative forms: a profile of the team-writing process, *IEEE Transactions on Professional Communication*, 37 (3), 163-170.

O'QITUVCHI-O'QUVCHI MUNOSABATLARIDA EMOTSIONAL INTELLEKT VA EMPATIYANING AHAMIYATI

Mavlanova Zilola Turakulovna

Psixologiya kafedrası

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarda emotsional intellekt va empatiyaning ahamiyati psixologik hamda pedagogik nuqtai nazardan yoritilgan. Emotsional intellekt ta'lim jarayonida o'quvchilarning his-tuyg'ularini anglash, ularni boshqarish va ijobiy ruhiy muhit yaratishda muhim vosita sifatida qaraladi. Empatiya esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro ishonch, hurmat va hamkorlikni kuchaytiradi. Maqolada emotsional intellekt va empatiya o'quvchilar motivatsiyasini oshirish, nizolarni oldini olish va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda qanday rol o'ynashi misollar orqali tahlil